



JAMIYATNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIGA BYUDJET SIYOSATINING TA'SIRI

Dustmirzayev Farxod Bekmirzayevich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

ORCID: 0009-0000-9576-3278

85fara19@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy moliya fani fiskal siyosatning ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini o'rganishga katta e'tibor beradi. Byudjet siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha qarorlarni sifatli va o'z vaqtida qabul qilish davlat moliyasi balansiga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligi darajasiga ta'sir qiladi. Byudjet siyosati davlat moliya tizimidagi moliyaviy-iqtisodiy o'zgarishlarning samaradorligiga ta'sir qiladi, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni moliyalashtirishni ta'minlaydi, uning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishni rag'batlantiradi, ishlab chiqarishni jadallashtirish va jamiyatning rivojlanish darajasini tezlashtiradi.

Kalit so'zlar: byudjet, soliq siyosati, byudjet strategiyasi, soliq tizimi, soliq yuki, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, byudjet taqchilligi, davlat qarzi, fiskal konsolidatsiya, o'rta muddatli byudjetni rejalashtirish, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish.

ВЛИЯНИЕ БЮДЖЕТНОЙ ПОЛИТИКИ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА

Дустмирзаев Фарход Бекмирзаевич

Высшая школа бизнеса и предпринимательства
при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Аннотация. Современная финансовая наука уделяет значительное внимание изучению влияния бюджетной политики на социальное развитие. Качество и своевременность принятия решений по вопросам формирования и реализации бюджетной политики влияют на сбалансированность государственных финансов, уровень эффективности государственного регулирования социально-экономических процессов. Бюджетная политика влияет на эффективность финансово-экономических преобразований в системе государственных финансов, обеспечивает финансирование структурной перестройки экономики, стимулируя развитие ее приоритетных отраслей ускоряя интенсификацию производства и уровень развития общества.

Ключевые слова: бюджет, налоговая политика, бюджетная стратегия, налоговая система, налоговая нагрузка, доходы бюджета, расходы бюджета, дефицит бюджета, государственный долг, фискальная консолидация, среднесрочное бюджетное планирование, экономический рост, социальное развитие.

THE IMPACT OF BUDGET POLICY ON THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF SOCIETY

Dustmirzaev Farkhod Bekmirzaevich

*Higher School of Business and Entrepreneurship
under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. *Modern financial science pays considerable attention to the study of the impact of fiscal policy on social development. The quality and timeliness of decision-making on the formation and implementation of budget policy affect the balance of public finances, the level of effectiveness of state regulation of socio-economic processes. Budgetary policy affects the effectiveness of financial and economic transformations in the public finance system, provides financing for the structural restructuring of the economy, stimulating the development of its priority sectors, accelerating the intensification of production and the level of development of society.*

Keywords: *budget, tax policy, budget strategy, tax system, tax burden, budget revenues, budget expenditures, budget deficits, public debt, fiscal consolidation, mid-term budget planning, economic growth, social development.*

Kirish.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida davlat moliyasining mohiyati va davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirish tamoyillarini qayta qurishga ehtiyoj sezilmoqda. Davlatga ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda ko'maklashuv-chi eng muhim mexanizmlardan biri, bu albatta davlat byudjeti hisoblanadi. Byudjet yordamida davlat markazlashgan fondlarni shakllantiradi va normarkazlashgan fondlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'z zimmasiga yuklatilgan funktsiyalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Davlat byudjeti mamlakat hukumati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda hal qiluvchi o'rin tutadi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi.

Byudjet munosabatlari tizimi orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi favqulodda murakkab hisoblanadi. Hozirgi vaqtda davlat daromadlarini jalb qilish usullari va manbalarini tahlil qilish, moliyaviy faoliyat samaradorligini oshirishning yangi strategik yo'nalishlari, usul va yo'llarini asoslashga bo'lgan zarurat tobora ortib bormoqda. Byudjet munosabatlarini isloh qilish davlat moliyasini va uning byudjet siyosatini ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorliklarga muvofiq o'zgartirish borasida zamonaviy kontseptual yondashuvlarni qo'llashni talab qiladi. Bugungi kunda byudjet siyosati iqtisodiy jarayonlarga davlat ta'sirining asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Hozirgi sharoitda davlat byudjeti ijtimoiy (ishlab chiqarish) munosabatlarning bir qismini ifoda etib, davlatning ixtiyoriga mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning muayyan qismini to'plash va uni jamiyat taraqqiyotining turli sohalarini (iqtisodiyot, maorif, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, ijtimoiy ta'minot, boshqaruv, mudofaa va boshqalar) mablag' bilan ta'minlash imkonini beradigan muhim taqsimlash vositasi (instrumenti)dir (Malikov, Olimjonov, 2018).

Tadqiqotchi A. Abduvoxidov hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishda byudjet siyosatining o'rniga alohida e'tibor qaratadi, uning fikricha, byudjet siyosatini takomillashtirishda davlat byudjetining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilganligiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish kelgusida davlat byudjetiga tushadigan ijtimoiy yukni qisqartirishni ta'minlaydi (Abduvoxidov va boshq., 2023)

Iqtisodiy o'zgarishlar va globalashuv jarayonlarining kuchayishi fiskal siyosatning

institutsional asoslarini takomillashtirish borasida samarali tamoyil va yondashuvlarni ishlab chiqishni belgilaydi, bu esa byudjet makonida institutsional tarkibiy qismlarni uyg'unlashtirish imkoniyatini beradi, bu o'z navbatida turli darajadagi byudjetlarning dinamik balansi darajasini belgilaydi va byudjet me'morchiligini ijtimoiy va tsiklik iqtisodiy jarayonlar dinamikasini hisobga olgan holda takomillashtiradi. Byudjet munosabatlarining institutsional tamoyillari; iqtisodiy o'sish va inson taraqqiyotini jadallashtirishga qaratilgan uzoq muddatli istiqbolda fiskal siyosat mexanizmlari, vositalarini takomillashtirishni hisobga olgan holda byudjet siyosatini ishlab chiqish muhim vazifalardir (Chugunov va boshq., 2021).

Tadqiqotchi Hazratulovanning fikricha "O'zbekistondagi mavjud vaziyat hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sezilarli tafovutlarning mavjudligi, eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning aniq farqlanishining namoyon bo'lishi, qo'shilgan qiymatning tarmoq tarkibi, shuningdek, respublika hududlarining byudjet xavfsizligi va samaradorligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, hududlarda aholining hayot sifati mintaqalararo tabaqalanishni yumshatish va qoloq hududlar aholisining davlat tomonidan kafolatlangan davlat xizmatlaridan foydalanishini tenglashtirishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligiga bevosita bog'liqdir" (Hazratqulova, 2023).

Tadqiqot metodologiyasi.

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'min-lashda byudjet siyosatining o'rnini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan mazkur tadqiqot ishsining maqsadidan kelib chiqqan holda, tadqiqotda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiylik, guruhlash va umumlashtirish kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan holda izlanishlar olib borildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan o'z funktsiyalarini bajarishlari, jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarni amalga oshirishlari bevosita davlat byudjetida pul resurslarining mavjudligiga bog'liq. Resurslarni byudjetga jalb qilish va byudjet mablag'laridan foydalanish jarayonida davlat idoralari vakillari, soliq to'lovchilar va byudjet mablag'larini oluvchilar o'rtasida moliya-kredit munosabatlari vujudga keladi. Mazkur munosabatlar davlat hokimiyati tomonidan shakllantiriluvchi va amalga oshiriluvchi byudjet siyosatiga asoslanadi.

Zamonaviy sharoitda byudjet siyosati davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta'sirining asosiy vositalaridan biridir. Samarali byudjet siyosati mamlakatning milliy manfaatlarini qondirish va uning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Byudjet siyosati-bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida mamlakat davlat byudjetini shakllantirish, ijro etish va tartibga solish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuini ifoda etadi (Malikov, 2011).

"O'zbekiston - 2030" strategiyasidan kelib chiqib, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun tashqi va ichki ta'sirlarga moslashuvchan fiskal siyosat olib borish maqsad qilingan bo'lib, o'rta va uzoq muddatdagi asosiy maqsadlar sifatida quyidagilar belgilangan:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish va buning uchun YaIM hajmini 160 milliard AQSH dollariga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming AQSH dollariga yetkazish;

- konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini YaIMga nisbatan 3 foizlik target ko'rsatkichi doirasida ushlab turish uchun daromadlar bazasini mustahkamlash va byudjet xarajatlari samaradorligini oshirish hamda bu orqali makroiqtisodiy barqarorlik va byudjet intizomini ta'minlash;

- o'rta muddatga mo'ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish orqali davlat qarzining YaIMga nisbatini 50 foizdan oshmasligini ta'minlash;

- “Yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish va daromadlarni legallashtirish orqali byudjet tushumlarini ko‘paytirish;
- “Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish” amaliyotiga bosqichma-bosqich o‘tish;
- soliq, bojxona qonunchiligini va iqtisodiyotning turli sohalariga ajratilayotgan subsidiyalar va berilayotgan imtiyozlarni JST talablariga uyg‘unlashtirish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish uchun Davlat byudjeti xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligini saqlab qolish.

Aynan byudjet siyosati davlatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashda yetakchi rol o‘ynaydi. Byudjet resurslarining cheklanganligi, iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida yangi ehtiyojlarning vujudga kelishi asnosida byudjet mablag‘lari taqchilligining o‘sib borishi sharoitida byudjet siyosatining roli muttasil o‘sib boradi.

Byudjet siyosati-bu aholi farovonligini oshirish maqsadida uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlash borasida byudjet mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish bo‘yicha davlat chora-tadbirlari majmuidir. Davlat siyosati mahalliy va xorijiy mutaxassislar - olimlar, amaliyotchilarni jalb qilgan holda tegishli darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqilmoqda. Tor ma‘noda byudjet siyosati-bu byudjetni shakllantirish va ijro etish siyosatidir.

Byudjet siyosatning dastlabki mezoni, dominant va asosiy vektori moliyaviy-iqtisodiy doktrinadir. 2025 – 2027-yillarga mo‘ljallangan byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Byudjet barqarorligini ta‘minlash;
2. Byudjet xarajatlari samaradorligi va natijadorligini yanada oshirish;
3. Byudjet kalendarini qayta ko‘rib chiqish orqali byudjet jarayonini takomillashtirish;
4. Byudjet ochiqligini ta‘minlash;
5. Byudjet jarayonini raqamlashtirish ishlarini davom ettirish;
6. G‘aznachilik xizmatini yanada takomillashtirish;
7. Byudjet siyosatida inson kapitali rivojlanishiga doir xarajatlar ustuvorligini ta‘minlash;
8. Aholi turmush darajasini oshirish, fuqarolarning real daromadlari o‘shishini ta‘minlash va ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish;
9. Byudjetni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini yanada oshirish;
10. Davlat sektorida ichki nazorat va ichki audit xizmatini takomillashtirish;
11. Iqtisodiy va moliyaviy natijalarni hamda gender tenglikni yaxshilashni qo‘llab-quvvatlash uchun byudjet jarayonini takomillashtirish;
12. Investitsiya dasturlarini shakllantirish va ijro etish tizimini yanada takomillashtirish (Byudjetnoma,2025).

Byudjet siyosatining amalda ijrosini ta‘minlash davlat byudjet tizimi orqali amalga oshiradigan strategik va taktik chora-tadbirlar majmuidan iborat. Byudjet siyosati ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida YaIMni taqsimlash va qayta taqsimlash, ijtimoiy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste‘mol qilish, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish jarayonida insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi.

Davlat yoki mintaqaning byudjet siyosatini talqin qilish borasida ilmiy adabiyotlarda boshqa yondashuvlar ham keltirib o‘tiladi. Bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishishda mazkur siyosatning turlicha ta‘sir qilishi va murakkabligidan dalolat beradi. Davlat byudjet siyosatining asosiy xususiyatlari va olimlar tomonidan ushbu ta‘rifning turli xil talqinlarini hisobga olgan holda, byudjet siyosatining mohiyatini aniqlashda quyidagi yondashuvni shakllantirish mumkin. Byudjet siyosatini davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining o‘zaro bog‘liq maqsad va vazifalari bilan belgilanuvchi, muayyan tamoyillarni hisobga olgan holda turli funktsiyalarni bajaruvchi, davlat va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirishga qaratilgan maxsus vositalardan foydalangan holda byudjet munosabatlari sohasidagi iqtisodiy va ma'muriy chora-tadbirlar majmui sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat moliyasidan foydalanishda eng yuqori samaradorlikka byudjet siyosati maqsadlari va iqtisodiy rivojlanish vazifalari birligini ta'minlash, siyosiy tizimni takomillashtirish, fuqarolarning moddiy farovonligi, ularning ma'naviy darajasini oshirish orqali erishiladi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlamasdan, byudjet siyosatining barcha muhim vazifalarini samarali hal qilib bo'lmaydi.

Byudjet siyosatining to'laqonli amalga oshirilishi davlat va ma'muriy-hududiy birliklarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiradi, byudjetni oqilona rejalashtirishga, shuningdek moliyaviy resurslarni samarali shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishga yordam beradi.

YaIMni milliy iqtisodiyot tarmoqlari, aholining ijtimoiy guruhlari va hududlar o'rtasida taqsimlash va mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash davlat darajasida byudjet siyosatining strategik maqsadi sifatida belgilanishi mumkin.

YaIMni mamlakat miqyosida taqsimlash jarayoni davlat, uning iqtisodiy tizimini mustahkamlash, aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi va umuman jamiyat ehtiyojlari, shuningdek jamiyat har bir a'zosining individual ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

O'z ilmiy izlanishlarida byudjet siyosatining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ta'siri muammolarini yoritgan yetakchi mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarini o'rganish byudjet siyosatini amalga oshirish jarayonida belgilangan maqsadga erishish borasida quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish lozimligini ko'rsatadi:

1. Ilmiy asoslanganlik tamoyili, mazkur tamoyil zamonaviy byudjet siyosati ilmiy asoslangan va tasdiqlangan bo'lishin anglatadi, shu bilan bir qatorda, o'rta va uzoq muddatda byudjet siyosati yo'nalishlarida uning asosiy maqsad va vazifalari, iqtisodiyot, moliya va jamiyatda yuz beruvchi ob'ektiv jarayonlarni haqqoniy aks ettirilishi lozimligini ko'zda tutadi.

2. Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili byudjet dasturlarini to'liq va samarali moliyalashtirishga byudjet siyosatining qay darajada maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

3. Shaffoflik va ochiqlik tamoyili byudjet siyosatini amalga oshirish jarayoni barchaga tushunarli va ochiq ekanligini anglatadi.

4. Izchillik tamoyili byudjet siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish kontseptsiyasining bir-birini to'ldirishini anglatadi.

5. Samaradorlik tamoyili byudjet xarajatlari sarfini kamaytirish asnosila yuqori maqsadli natijaga erishishni ko'zda tutadi.

Tegishli tamoyillarga rioya qilish byudjet siyosati funktsiyalarini to'liq amalga oshirishga imkon beradi. Quyida (1-rasm) ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:


➤ moliyaviy resurslarning maqbul taqsimlanishini ta'min etuvchi taqsimlash funktsiyasi;
➤ iqtisodiy faoliyatni samarali tartibga solish va mavjud resurslardan unumli foydalanish yo'nalishi bo'yicha jarayonlar va munosabatlarni tartibga solishni ko'zda tutuvchi muvofiqlashtirish funktsiyasi;

➤ byudjet mablag'larining samarasiz va noo'rin sarflanishini bartaraf etishdan iborat bo'lgan nazorat funktsiyasi;

➤ ijtimoiy-iqtisodiy o'sish omillarini amalga oshirishni maqsadli rag'batlantirishni ta'minlashdan iborat rag'batlantiruvchi funktsiya;

➤ byudjet resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanishda salbiy tendentsiyalar paydo bo'lishining oldini olishni ko'zda tutuvchi tezkor chora ko'rish funktsiyasi;

➤ davlat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyalashtirishda manfaatdor tomonlargda rag'bat uyg'otuvchi motivatsiyalash funktsiyasi.




1-rasm. Byudjet siyosati funksiyalari

Manba: muallif ishlanmasi.

Davlat byudjet siyosatining asosiy vazifasi muvozanatli byudjetni ta'minlashdir. Byudjet nomutanosibligi ikki shaklda namoyon bo'ladi: defitsit (xarajatlarning daromaddan ortiqligi) va profitsit (daromadning xarajatlardan ortiqligi). Ushbu muammoni hal qilish yo'nalishi bo'yicha byudjet siyosatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari davlat byudjeti daromadlari, xarajatlari va taqchilligi (profitsiti) ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ko'rsatkich bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham byudjet taqchilligi saqlanib qolmoqda. Odatda YaIMga nisbatan 3-4 foiz atrofida bo'lgan taqchillik maqbul sanaladi va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ammo aksariyat hollarda byudjet taqchilligi bir qator salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi va bu o'z navbatida uni kamaytirish choralarini ko'rishni talab qiladi.

2-rasmda 2012-2023 yillar oralig'ida O'zbekistonda davlat byudjeti taqchilligining o'zgarish dinamikasi keltirib o'tilgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2018 yildan boshlab davlat byudjeti taqchilligi yaqqol kuzatila boshlagan, bu O'zbekistonda davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga ajratilayotgan xarajatlar ulushining keskin oshish bilan izohlanadi. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekistonning fiskal siyosati fiskal barqarorlikni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, asosiy maqsadlaridan biri konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslikdir. Bu, o'z navbatida, fiskal barqarorlikni saqlab qolish va davlat qarzi yukini kamaytirishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, soliqqa tortish, bojxona va byudjet siyosatini JST talablari bilan uyg'unlashtirish muhim qadam bo'lib, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashuviga yordam beradi.



2-rasm. O'zbekistonda davlat byudjeti taqchilligining o'zgarish dinamikasi, YaIMga nisbatan %da¹⁶

Byudjet taqchilligining mavjudligini har doim ham salbiy hodisa sifatida qabul qilish maqbul emas. Hozirda dunyoning aksariyat mamlakatlarida byudjet taqchilligi kuzatiladi. Agar davlat yillik byudjetni defitsitsiz qabul qilishga intilsa, kelajakda bu muhim xarajatlar kamayishi va soliq tushumlari ko'payishi tufayli iqtisodiyotning tsiklik tebranishlarini kuchaytiradi. Shuning uchun kelgusi yil uchun davlat byudjetini rejalashtirishda mamlakat oldida turgan dolzarb vazifalar hamda uning uzoq muddatli ustuvorliklari ham hisobga olinishi talab etiladi.

Byudjet taqchilligini bartaraf etish yo'nalishlari davlatning umumiy byudjet siyosatidan kelib chiqib belgilanadi. Nazariy jihatdan byudjet taqchilligini bartaraf etishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:


- byudjetning daromad qismini ko'paytirish- mazkur yo'nalish ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning hajmini oshirishga undaydigan soliq siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, byudjet resurslarini to'ldirishning asosiy manbai - milliy daromadni oshirishning zaruriy sharti bo'lmog'i lozim. Buning natijasi o'laroq, byudjet mablag'lari hisobiga ishlab chiqarish hajmi va byudjet mablag'lari ko'payishi lozim;

- byudjetning xarajatlar qismini qisqartirish - byudjet tizimining iqtisodiy rivojlanish xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish investitsiyalarida davlat ishtirokini kamaytirish (milliy infratuzilmaning ayrim ob'ektlari, sanoat ishlab chiqarishi tarkibidagi ustuvor yo'nalishlar, ekologik loyihalar va boshqalar bundan mustasno), boshqaruv va harbiy xarajatlarni kamaytirish bilan bog'liq yo'nalish;

- byudjet xarajatlari tuzilmasini o'zgartirish - iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish, byudjet mablag'larini investitsiya qilish yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish va ularni mamlakat iqtisodiyoti o'sishini ta'minlaydigan tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirish, davlat iqtisodiy ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqish va umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lmagan davlat dasturlarini moliyalashtirishni qisqartirish;

- ichki va tashqi qarz manbalaridan foydalanish- tarkib topgan taqchilligini moliyalashtirish manbalarini izlash bilan bog'liq yo'nalishdir.

¹⁶ <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/government-budget>



3-rasm. O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi dinamikasi¹⁷

Davlat qarzlari va kreditlaridan keng foydalanish davlat qarzining tez o'sishiga olib keladi, bu esa davlat qarzlarini boshqarish tizimini tashkil qilishga alohida yondashuvni talab qiladi.

Davlat qarzini boshqarish qarzi kapitali bozoridagi vaziyatni o'rganish, yangi qarz olish va berish shartlarini ishlab chiqish, ilgari olingan qarzlar bo'yicha foizlarni to'lash, qarzni konvertatsiya va konsolidatsiya qilish, pul bozorida obligatsiyalarning almashinuv kursini aniqlash, pul mablag'larini to'lash va davlat kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini aniqlash choralari bilan bog'liq hukumatning chora-tadbirlar majmuini ifoda etadi.

So'nggi yillarda davlat qarzini mo'tadil darajada saqlash va samarali boshqarish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan:

- O'zbekiston Respublikasining "Davlat qarzi to'g'risida"gi Qonunida Davlat qarzining eng yuqori miqdori YIMning yillik prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 60 foizdan oshishiga yo'l qo'yilmasligi belgilandi. Bunda, Davlat qarzining miqdori YIMga nisbatan 50 foizga yetgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat qarziga belgilangan me'yorlardan oshmasligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga kiritadi;

- 2020-yildan boshlab yangi jalb qilinadigan davlat qarzi miqdorlarini qonuniy chegaralash amaliyoti yo'lga qo'yildi;

- Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish va valyuta xatarlarini boshqarish maqsadida milliy valyutada qarzi jalb qilish hamda ichki moliya bozorlarini rivojlantirish choralari ko'rilmoqda.


Xususan, yillik davlat g'aznachiligi obligatsiyalarini joylashtirish hajmi 2018- yildagi 597 mlrd so'mdan 2023-yilda 25 trln so'mga yetkazildi, obligatsiyalarning muomala davri 10 yilgacha uzaytirildi. Shuningdek, 2020-2024-yillarda 11,8 trln so'mlik milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi.

O'rta muddatli istiqbol uchun makroiqtisodiy prognozlar, tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari va strategiyalarida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga asoslangan ko'p ssenariyli tahlillarga ko'ra, 2024-yil yakunida davlat qarzi YIMga nisbatan 35,5 foiz, 2025-2027-yillarda 36,7-37 foiz oralig'ida shakllanishi prognoz qilinmoqda.

Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo'yicha talab etiladi:

¹⁷ https://api.mf.uz/media/filestore/Fiskal_strategiya_2025-2027_0LbiYzu.pdf

- davlat qarzini to'lashning o'rtacha muddatini uzaytirish (masalan, o'rta va uzoq muddatli davlat qimmatli qog'ozlari chiqarishni ko'paytirish), shuningdek, davlat qarzini manbalar bo'yicha diversifikatsiya qilish;
- davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni keng jalb qilish jarayonini jadallashtirish;
- davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xatarlarning oldini olish, ularni bartaraf etish yoki kamaytirish yuzasidan qat'iy choralar ko'rish;
- davlat qarziga oid ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash.



4-rasm. Davlat byudjeti xarajatlari bilan YaIMning o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlik

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ta'kidlash lozimki, milliy iqtisodiyotga xarajatlar bilan mamlakat YaIM o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud. Milliy iqtisodiyotga yo'naltirilgan davlat byudjeti xarajatlarning o'sishi YaIMning o'sishiga olib keladi va aksincha xarajatlarning qisqarishi YaIMning ham qisqarishiga sabab bo'ladi. 2027 yilgacha bo'lgan muddatda davlat byudjeti xarajatlarning 2022 yilga nisbatan qariyb 2 baravar, davlat byudjetidan iqtisodiyot soha tarmoqlarini rivojlantirishga xarajatlar 1,2 baravar, ijtimoiy soha xarajatlarning 1,6 baravar o'sishining prognoz qilinishi 2030 yilgacha bo'lgan muddatda YaIMning maqsadli ko'rsatkichi, ya'ni 160-200 mlrd. AQSh dollariga yetkazish amalda mumkin ekanligini ko'rsatadi (4-rasm).

Shu tariqa, iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida byudjet siyosati davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishining samarali vositalaridan biri bo'lib qoladi.

Xulosa va takliflar.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga byudjet siyosatining ta'sirini o'rganish asosida mazkur maqola doirasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. O'sib borayotgan davlat qarzi va davlat byudjeti taqchilligi sharoitida byudjet intizomini mustahkamlash va shu bilan bir qatorda, davlat qarzini boshqarishning jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, davlat qarzini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

2. Byudjet taqchilligini qoplash maqsadida chetdan jalb qilinayotgan mablag'lar miqdorini bosqichma-bosqich qisqartirish amaliyotini joriy qilish talab etiladi, zero tashqaridan jalb qilinayotgan mablag'lar miqdorining ortishi o'rta muddatli istiqbolda eksportning qimmatlashishi va importning arzonlashishiga olib keladi, tabiiyki bunday vaziyat mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligining pasayishiga olib keladi.

3. Qarz yukining muttasil o'sib borishi kelgusida biznesga soliq yukining ortishiga olib kelishi va ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilarning norasmiy sektorga o'tib ketishlariga zamin yaratishi mumkin.

4. Iqtisodiyotga byudjet siyosatining ta'sirini oshirish, uning rag'batlantiruvchi funktsiyasining o'rnini mustaxkamlash maqsadida natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotiga tezkor o'tish, iqtisodiyotda davlat sektori ulushini qisqartirish talab etiladi.

5. Iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitini yaratish, korxonalar va tashkilotlarga teng imkoniyatlar berish maqsadida asossiz imtiyoz va engilliklar berish amaliyotidan butkul voz kechish talab etiladi.

6. Byudjet siyosati samaradorligiga erishish maqsadida soliq ma'murchiligini takomillashtirish, xususiy mulk daxlsizligini yanada qat'iyashtirish, davlat boshqaruvi xarajatlarini qisqartirish, moliya organlarining ta'sirchanligini oshirish talab etiladi.

Adabiyotlar/Literaturaga/Reference:

Malikov T. S., Olimjonov O. (2018) *Moliya //O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya.*

Maxmud o'g'li M. M. et al. (2023) *Бюджет солиқ сиёсати орқали мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришнинг аҳамияти //Journal of innovations in scientific and educational research. – Т. 6. – №. 9. – С. 49-54.*

Абдувоҳидов А., Тошбоев Б. (2023) *Импорт ўрнини босувчи саноат сиёсатининг халқаро тажрибаси ва ундан Ўзбекистон шароитида фойдаланиш йўллари //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.– Т. 1. – №. 4. – С. 81-92.*

Абдувоҳидов, А., Кадырова, Д., & Обилов, М. (2023). *Пути совершенствования доходной базы местных бюджетов в Узбекистане. Экономическое развитие и анализ, 1(1), 4–12.* извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/44627>

Асатуллаев Х. С. (2019) *Иқтисодий фаолликка йўналтирилган давлат фискал сиёсати //Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари.– С. 4-4.*

Баратов С. (2023) *Ўзбекистонда камбағалликни қисқартиришда бюджет сиёсати таҳлили //Iqtisodiyot va ta'lim.– Т. 24. – №. 3. – С. 320-327.*

Жузбаев А., Қудияров К. (2017) *Бюджет-солиқ сиёсати иқтисодиёт ривожининг асоси //Вестник Каракалпакского государственного университета имени Бердаха.– Т. 34. – №. 1. – С. 29-31.*

Маликов Т. С. (2019) *Бюджет-солиқ сиёсати. Дарслик //Т.: Iqtisod-moliya. – Т. 404.*

Маликов Т. С., Жалилов П. Т. (2011) *Бюджет-солиқ сиёсати //Ташкент: Академнашр.*

Тўраев Ш. Ш. (2023) *Ўзбекистон Республикаси бюджет-солиқ сиёсатининг устувор йўналишлари //Innovations in Technology and Science Education.– Т. 2. – №. 6. – С. 25-33.*

Хазраткулова Л. (2023) *Современное состояние и проблемы системы межбюджетных отношений в республике узбекистан //Economics and Innovative Technologies.– Т. 11. – №. 6. – С. 129-142.*

Чугунов, Игорь и Макогон, Валентина и Пасичный, Николай и Никитишин, Андрей и Адаменко, Ирина и Крикун, Татьяна и Канева, Татьяна и Козарезенко, Людмила и Собчук, Сергей (2018), *Бюджетная политика социального развития doi: https://doi.org/10.21303/978-9949-7316-1-9, доступно в SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3754781>*

https://api.mf.uz/media/filestore/Fiskal_strategiya_2025-2027_0LbiYzu.pdf

<https://tradingeconomics.com/uzbekistan/government-budget>